INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI

JOVLI XUSHBOQNING “MUHAMMAD SHAYBONIYXON” ROMANIDA SHAYBONIYXON OBRAZINING BADIIY TALQINI VA G‘OYAVIY MOHIYATI

Pirmatova Durdona Egamberdi qizi,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2-bosqich magistranti
E-mail: durdonapirmatova1996@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19693525

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Jovli Xushboqning “Muhammad Shayboniyxon” romanida Shayboniyxon obrazining badiiy talqini va g‘oyaviy mohiyati tahlil qilinadi. Asarda tarixiy shaxsning badiiy obrazga aylanish jarayoni, uning ichki kechinmalari, siyosiy faoliyati hamda shaxsiy fazilatlari yoritilgan. Muallif Shayboniyxon obrazini tarixiylik va badiiylik uyg‘unligida tasvirlab, uni nafaqat hukmdor va sarkarda, balki murakkab ruhiy olamga ega shaxs sifatida gavdalantiradi.*

Kalit so‘zlar: *Tarixiy roman, badiiy obraz, g‘oyaviy mohiyat, tarixiylik va badiiylik, monolog, obraz talqini, o‘zbek romanchiligi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется художественная интерпретация и идейная сущность образа Шайбани-хана в романе Жовли Хушбока «Мухаммад Шайбанихан». Рассматривается процесс превращения исторической личности в художественный образ, раскрываются его внутренние переживания, политическая деятельность и личностные качества. Автор изображает Шайбанихана как сложную личность, сочетающую историческую достоверность и художественное осмысление, представляя его не только как правителя и полководца, но и как человека с богатым внутренним миром.*

Ключевые слова: *исторический роман, художественный образ, идейная сущность, историчность и художественность, монолог, интерпретация образа, узбекская литература.*

Annotation. *This article analyzes the artistic interpretation and ideological essence of the image of Shaybanikhan in Jovli Khushboq’s novel “Muhammad Shaybanikhan.” The study explores the transformation of a historical figure into a literary character, highlighting his inner experiences, political activity, and personal qualities. The author presents Shaybanikhan as a complex figure combining historical authenticity with artistic imagination, portraying him not only as a ruler and commander but also as a psychologically rich personality.*

Keywords: *Historical novel, artistic image, ideological essence, historicity and fiction, monologue, character interpretation, Uzbek literature.*

Kirish. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi turli jihatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, tarixiy romanchilik borasida mavzu ko‘lami, haqiqatga yuzlanish, jamiyat bilan chambarchas bog‘lanish, psixologizm, tarixiy haqiqatlarni ochiq olib chiqish kabi jihatlarni sanash o‘rinlidir. Chunki “…bu davrda yozilgan tarixiy shaxslarga oid romanlarning yana bir xususiyati…realizmning totalitar sho‘ro tuzumi sharoitida ochilmay qolgan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqardi, inson hayoti va ruhiyatining ilgari xaspo‘shlab o‘tilgan yoki norasmiy taqiq ostida bo‘lgan jihatlarini ham

qalamga ola boshladi”[5: 3]. Shuningdek, “Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi, eng avvalo, insonga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi, olam va odam munosabatlarini boshqa rakursdan turib tasvirlashga urinish nuqtayi nazaridan o‘tgan davr adabiyotidan farq qiladi. Ba’zi mavzular borki, ularni qalamga oluvchi ijodiy erkinlik davri yozuvchilari “olam va odamni o‘zicha idrok”[5: 4] etib, “o‘zining individual nuqtayi nazarini badiiy obrazlar vositasida”[5: 4] ifodalaydilar.

Adabiyotlar tahlili. Bu davrda Jovli Xushboq, Sa’dulla Siyoyev kabi yozuvchilar o‘zbek romanchiligi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shdilar. Ularning Shayboniyxon va uning davriga bag‘ishlangan qissa va romanlari bugungi kun romanchiligida favqulodda hodisa deya aytishimiz mumkin. Jovli Xushboqning “Muhammad Shayboniyxon” romani Shayboniyxon shaxsiga oid yangi asrda yaratilgan ilk romanlardan biridir. Yaqin davrlargacha ham Shayboniyxon bilan bog‘liq ayrim haqiqatlar, boshqacha qilib aytganda, bir asrdan ortiq yurtimiz tarixi bilan bog‘liq hukmronlik davri deyarli o‘rtaga chiqmayotgan edi. Fikrimizni quyidagilar bilan ham isbotlashimiz mumkin: “o‘zbek xonliklari va xonlariga bo‘lgan salbiy munosabat sovet davri mafkurasi mevalaridir. Bu haqda tarixchi olim Eldor Asanov o‘zining “Shayboniyxon shaxsiyati nega e’tiborsiz qolmoqda? O‘zbek tarixining eng ziddiyatli nuqtasi haqida mulohazalar” nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “SSSRning Markaziy Osiyodagi respublikalari o‘zbek xonliklarining “tirigini” ko‘rgan, ularga qarshi kurashib, ularni qulatib, xarobalarida tuzilgan davlatlar edi. Xonliklar tarixini yozgan sovet fani o‘tmishni his-tuyg‘usiz yoritishga emas, ideologik raqibini toshbo‘ron qilishga urinardi. Bu xonliklar davriga xolis yondashishga, ayrim arzirli voqealar, yutuqlar, shaxslarga tadqiqiy e’tibor qaratishga to‘sqinlik qilardi” [7: 33].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda struktur-semantik metod orqali Shayboniyxon obrazining ichki kechinmalari badiiy vositalar(dialog, monolog) yordamida ifodalanishi yoritib beriladi. Poetik tahlil metodi yordamida esa Shayboniyxon obrazining badiiy-estetik vazifasi, g‘oyaviy mohiyati, xarakter xususiyatlari ochib beriladi.

Tahlillar va natijalar. Muallifning bizga taqdim qilgan romanida bosh qahramon sifatida Shayboniyxon paydo bo‘ladi va roman voqealari uning tegrasida kechadi. Asar voqeabandlikka asoslanmagan holda turlicha nomlarga ajratilgan bo‘lib, ularning har birida tasvirlangan voqealar asosan tarixiy shaxslarning badiiy tasvirlarini yuzaga keltirilishiga mos tarzda nomlangan.Yozuvchi Shayboniyxonni asosiy obraz sifatida tanlab olib, u va uning atrofidagi boshqa ko‘plab tarixiy shaxslar obrazlari orqali o‘sha davr voqealarini, tarixiy shaxslarning yozuvchi tomonidan tasavvur etilgan qiyofalarini, eng asosiysi, Shayboniyxonning ichki kechinmalarini,

ilmda, dinda, davlat boshqaruvida, siyosiy qarama-qarshiliklarga duch kelgan vaziyatlarda qanday shaxs bo‘lganligini ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Badiiy asarda tarixiy shaxs obrazining yaratilishi hech qachon tasodifiy hodisa bo‘lmaydi. Negaki yozuvchi muayyan tarixiy figurani tanlar ekan, uni faqat voqealar ishtirokchisi sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va estetik g‘oyalarni tashuvchi konseptual timsol sifatida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Muhammad Shayboniyxon obrazining g‘oyaviy-badiiy funksiyasini yoritish orqali tarixga, davlatchilik masalasiga va hokimiyat fenomeniga, uning badiiy xarakteriga nisbatan munosabatlarni, yozuvchi tomonidan ko‘rsatilgan xarakterlarning badiiy ifodasini aniqlash imkonini beradi.

Shayboniyxon obrazining badiiy talqinida, avvalo, tarixiylik va badiiylik nisbatiga e’tibor qaratiladi. Obraz xarakterining shakllanishida muallif tanlagan badiiy vositalar, qahramon nutqi va voqealarga munosabati muhim ahamiyat kasb etgan. Tarixiy shaxsning badiiy obrazga aylanish jarayoni adabiy asarda murakkab va ko‘p qirrali hodisa hisoblanadi. Shu jihatdan romandagi Shayboniyxon obrazi tarixiy haqiqatga tayangan holda, manbalarda qayd etilgan Shayboniyxonning siyosiy faoliyati, Temuriylar bilan hamda xalqaro maydonda olib borgan kurashlari asosiy planda yoritib berilgan. Shu bilan birga, muallif qahramonning ichki kechinmalari, qarorlar oldidagi ruhiy holatini, asosan, monologlar orqali ochib beradi. Natijada Shayboniyxon obrazi tarixiy shaxs doirasidan chiqib, murakkab va jonli badiiy obraz darajasiga ko‘tariladi.

Shayboniyxon tarixiy ma’lumotlarda yoki boshqa badiiy asarlarda, asosan, o‘ta darajada hiylakor, qo‘pol va qo‘rs shaxs sifatida talqin etilgan. “Shayboniy o‘z tabiatiga ko‘ra jasur va shuhratparast edi”[2:71]. Lekin Jovli Xushboqning asarida u xushmuomala hukmdor, umuman olganda butunlay yumshoq tabiatli, muloyim shaxs sifatida tasvirlangan. Yozuvchi uning ichki olamini monologlardan foydalangan holda chiroyli tasvirlaydi: “Ellik yildan oshiq umrim davomida asosan uch narsadan lazzat olgaymen, huzur qilamen. Birinchisi, yuragimni bo‘shatib olish-g‘azal yozish. Ikkinchisi, tabiat qo‘ynida sayr qilish – shikorga chiqish. Uchinchisi, o‘zing sevgan, yaxshi ko‘rgan do‘sting yo yoring bilan suhbat qilish”[3: 102]. Bu monologlarda shoirtabiat, sevgi-muhabbatga moyil, janglardan uzoq turishni istovchi Shayboniyxon qiyofasi jonlantirilgan. Shayboniyxon muallif talqinida obraz sifatida mehribon ota, vafodor yor qiyofasiga aylantirilgan, qahramonning shikorni sevishi haqida ayrim jihatlar keltirilgan, lekin u o‘zining bu hobbisidan ham ko‘ra farzandini ustun qo‘ygani shunday tasvirlanadi: “Shu payt nimadir esiga tushdimi, otning jilovini tortdi, so‘ngra indamay qoldi: “E, yodimdan ko‘tarilay debdi, erta tongda Xurramshox o‘g‘lim isitmalab qolgan edi. Xavotir olyapman. Ahvoli sal-pal

yaxshilandimikan?". Garchi tarixda uning bu sifatlariga hech qanday dalil bo‘lmasa-da, yozuvchi uning yangi bir qiyofasini, badiiy g‘oyaviy mohiyatini asariga singdirishga harakat qilgan.

Badiiy asarda Shayboniyxonning boshboshdoqlik qilayotgan temuriy hukmdorlar yerlarini birlashtirishga qaratilgan harakatlari yozuvchi tomonidan tarixiy haqiqatga uyg‘un**,** lekin ma’lum darajada umumlashtirilgan holda tasvirlanadi. “Ikkinchidan, ayni qaltis pallada taqdiri qil ustida turgan Movarounnahr tashvishi, uni xorijiylar asoratiga tushirib qoldirmaslik qayg‘usi o‘yga toldiradur…yurtimizni Xitoy, Eron va jahondagi zo‘r davlatlar hamlasidan asrab qolishdek ezgu maqsaddan o‘zga murod qiziqtirmaydi meni”. Bu jarayonda u shaxsiy manfaatlarni emas, balki umumdavlat manfaatlarini ustuvor qo‘yuvchi hukmdor sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan mana shu jihatdan Shayboniyxon obrazi milliy birlik va siyosiy barqarorlik g‘oyasini tashuvchi tarixiy shaxs sifatida talqin etiladi. Shayboniy, nafaqat, Xuroson va Movarounnahrda, balki xalqaro maydonda ham qudratli shaxs sifatida talqin etilgan. Uning jahon mamlakatlari, xususan, rus va forslar oldidagi harbiy kuch-qudrati, hukmdorlik borasidagi salohiyati o‘ta darajada yuqori holatda bo‘lgan hukmdor sifatida talqin etilgan. Xususan, rus knyazi tomonidan yuborilgan maktubda “yozilishicha, ulug‘ rus knyazi Muhammad Shayboniyxonga o‘zining ko‘nglidagi gaplari, iltimos-u iltijolarini to‘kib solganliklari ayon bo‘ladi. Amir Temur avlodlari hamlasiga qalqon bo‘lib turganligi uchun minnatdorchilik bildirgan. Endi bo‘lsa, bir-birlariga hujm qilmaslik haqida oshig‘ich sulh tuzishni o‘tinib so‘ragan”. Shuningdek, muallif bu vazifani Eron shoxi Ismoil Safaviyning tilidan keltirilgan jumlalar hamda mashvaratdagi mulozimlar tomonidan e’tirof ettirilish sahnalari orqali badiiy dalillagan. “Tevarak-atrofda shivir-shivir gaplar boshlandi. “Shayboniyxon bostirib kelayotgan emish! Xatto tumshug‘i osmonda bo‘lgan Ismoil Safaviydek vallomatlar uchun ham sichqonning ini ming tanga bo‘lib, kirgali go‘r topilmaskan”. Bunda yozuvchi Shayboniyxon obrazi tashiyotgan badiiy g‘oya kuchini yana bir darajaga oshirishga erishgan. Natijada, bu tarixiy siymoning badiiy obrazi mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi tarixiy jarayonlarning faol subyekti sifatida ochiladi.

Romanda Shayboniyxon obrazining g‘oyaviy-badiiy funksiyasi antiteza (qarama-qarshi qo‘yish), ya’ni bir obrazni boshqa obrazlarga qarshi qo‘yish usuli orqali ham yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, uning forslar shohi Ismoil Safaviy va Zahiriddin Muhammad Bobur bilan ziddiyatlarga kelish sahnalari ilmiy tahlil uchun muhim badiiy ko‘rinish bo‘la oladi. Shayboniyxonning taxtga kelish sahnasini Zahiriddin Muhammad Bobursiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Negaki, Shayboniyxon temuriylar taxtini egallagan paytda o‘n to‘qqiz yoshli Bobur

hukmdorlikka da’vogar edi va Samarqandni egallash uchun uch marotaba bir-birlari bilan jang qilgan. Romanda ham aynan mana shu sahna badiiylashtirilgan. Samarqand fathi paytidagi qal’a ichida Bobur oila a’zolari bilan ochlikda qiynalayotgan holatlari va bunga Shayboniyning munosabati aks ettirilgan.

Bobur obrazi adabiy-badiiy asarlarda ko‘pincha nozik ruhiyatli, shoirona tafakkurga ega, ichki kechinmalarga boy shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning siyosiy faoliyatida murosaga moyillik va estetik hissiyotlar ustunlik qiladi. Lekin ushbu asarda uning tasviri biroz boshqacharoq ko‘rinish kasb etgan. Ya’ni Bobur obrazi boshqa badiiy yoki she’riy asarlardagi obrazlariga nisbatan ancha qahri qattiq qilib tasvirlangan. “U Shohning yuzi tundligini, qahrli vajohatini ko‘rib jiddiy tortdi. Bobur mirzo esa og‘zidan ko‘pik sachratib, qahrli o‘shqirdi. - Qayerlarda yuribsan, iflos, kallang joyidami o‘zi, nima xizmat deb so‘ramaysan ham”. Bunda u Shayboniyxon obraziga nisbatan ancha yosh va tajribasiz, harbiy kuchdan ham orqada qolayotgan, yengilayotgan qo‘rs hukmdor sifatida gavdalantiriladi. Shayboniyxon esa, aksincha, qat’iyatli, pragmatik va real siyosiy qarorlar qabul qiluvchi, yumshoq tabiatli hukmdor sifatida gavdalanadi. Ushbu qarama-qarshilik yozuvchiga davlat boshqaruvi masalasida Shayboniyxon obrazini ishonchliroq tasvirlash imkonini beradi. Shuningdek, Eron hukmdori Ismoil Safaviy bilan bo‘lgan to‘qnashuvlar ham badiiylashtirilgan. Shayboniyxonning Ismoil Safaviy bilan qarama-qarshiligi obrazning g‘oyaviy qatlamini boyitadi. Bu to‘qnashuv ikki hukmdorning shaxsiy adovati emas, balki ikki xil siyosiy-mafkuraviy tizimning qarama-qarshiligi sifatida talqin etilgan.

Muallif tarixiy voqealarga hamda shaxslarga subyektiv yondashgan. Natijada, yozuvchi Shayboniyxon siymosini ham tarixiy, ham badiiy xarakterga ega obraz sifatida yangidan jonlantirishga erishadi. Bilamizki, “badiiy xarakter o‘zida obyektiv va subyektiv jihatlarini birlashtiradi. Inson hayotining ijtimoiy-psixologik realligi badiiy xarakterning obyektiv tomoni bo‘lsa, uning ijodkor tomonidan hissiy idrok etilishi va g‘oyaviy-hissiy baholanishi subyektiv tomonidir”[4: 352].

Shayboniyxon obrazining yana bir g‘oyaviy-badiiy mohiyati uning kuchli darajada diniy bilimlardan xabardor hukmdor sifatida tasvirlanishidir. “Muhammad Shayboniyxon yarim sahroyi emas. U Buxoroda ilm o‘rgangan, ko‘ngli she’riyat va ilm-fanga payvand inson edi. Muhammad Shayboniy nafaqat kuch-qudratli sarkarda, shuning barobarida saxovatkor ilmu ma’rifat homiysi va benazir ijodkor sifatida ham kuch-qudratli shaxs edi. Shayboniyxon Amir Temurdan keyin Samarqandni obod qilgan ikkinchi hukmdor”[8: 4] edi. Yozuvchi aynan mana shu jihatlarga ham e’tibor bergan holda Shayboniyxonning bugungi kun zamonaviy romanida tarixiy siymo tasvirini mahorat bilan badiiylashtirgan. Muallif uni Qur’on oyatlarini biluvchi, diniy

ulamolarni qo‘llab-quvvatlovchi hukmdor qiyofasida ham gavdalantirgan. “Shayx Mansurning so‘zlarini diqqat bilan tinglab o‘tirgan Shayboniyxon quvonchini ichiga sig‘dirolmadi. O‘rnidan chaqqon turib, shayxning yelkasiga zarbof to‘n yopdi, yoniga bir xalta tilla qo‘ydi”[3: 35]. Shuningdek, romanda Shayboniyxonning bir qancha majlislarda din ulamolari bilan bahslashuv jarayonlari ham tasvirlangan bo‘lib, aynan mana bu sahna Herman Vamberining asarida shu tarzda keltirilgan: “U zamonning ruhoniy ulamolariga katta hurmat, hatto bolalarcha itoat qilib, barcha urush safarlarida o‘zi bilan barobar kichkina go‘zal kutubxonasini olib yurar, Temur kabi bu ham Damashq va Halab ulamosi bilan diniy munozaralarga qatnashgan. Qur’onning ba’zi bir oyatlari haqida Hirotning peshqadam tafsirchilari bo‘lgan Qozi Ixtiyor va Muhammad Yusufga e’tiroz bildirgan edi”[2:71]. Bunda yozuvchi Shayboniyxonni haqiqatdan tarixda diniy jihatdan yuksak ilmli bo‘lganligini, shuningdek, davlat ishlarining tegishli o‘rinlarida islomiy qonuniyatlarga amal qiluvchi hukmdor qiyofasida gavdalantirishni maqsad qilganligini ko‘rish mumkin.

Bosh qahramon haqidagi asosiy tarixiy sifatlardan biri shuki, “U shoir sifatida Shayboniyxon, Shohbaxt, Shoyboq, Shoybek, Sheboni, Shohibek, Shayboniy taxalluslari bilan she’rlar yozgan, kamdan-kam ijodkorga nasib etadigan rutba – “Devon“ egasi”[8:3] hisoblanadi. Vamberi aytganidek: “Bobur Shayboniyning ma’nosiz va lazzatsiz she’rlar yozganini, ularni minbardan o‘qishga amr etganini istehzo bilan bayon qiladi. Aslida esa, bu urush odami maorif va madaniyat haqida o‘z davrining ruhidan to‘la xabardor va zamonasidagi tengdosh shoirlarning aksariyatidan ortiq darajada qalam sohibi bo‘lgan”[2:71]. Roman janrining imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olgan muallif Shayboniyning she’r yozish mahoratini, she’riyatga oshnolik darajasini ko‘rsatish uchun vaziyatga mos bo‘lgan ijod namunalaridan ham foydalanib ketadi.“Xayol otining jilovini qo‘yib yuborar ekan, daf’atan yuragi hapqirib, o‘zi uchun jahonda eng aziz va go‘zal go‘shaga atab yozgan g‘azalining satrlari quyilib kela boshladi:

Har kishi ketsa Samarqand shahridin nochor kular,
Jannat ul-mavoda ham bo‘lsa Samarqandni tilar.”

Yozuvchi Jovli Xushboq ham romanida aynan shu maqsadda Shayboniyning shoirlik mahoratini, she’riy parchalarini asariga singdirib yuborgan, degan fikrni aytish mumkin. Tarixan she’riyatga oshno inson bo‘lgan bu tarixiy shaxs asarda ham yuqori darajada nazm kishisi sifatida ko‘rsatilgan. Jangdan uzoqda bo‘lsa yoki bir o‘zi xoli qolsa she’r yozishni kanda qilmaydigan shoir qiyofasi ko‘z oldimizda paydo bo‘ladi. “Tinch-osoyishta yashashga berishmaydi bular. Qay vaqt chodirimga kirib, o‘tli g‘azallarimni qoralashga kirishamen. Qachon insonga o‘xshab ko‘nglim xotirjam bo‘lib yashayman?” – degan iddaolarini ham o‘qiymiz. Romanda “uning

she’rlari, hatto, Xonzodabegimni ham maftun qilgan” degan qarashni sezish mumkin. Masalan, Xonzodabegim dugonasining yuziga termularkan: “Alisher Navoiy va Shayboniyxon she’rlarini o‘qisangiz yuragingiz larzaga keladi, qalbingizni toshqin ehtiroslar chulg‘ay boshlaydi,” – degan e’tirofli jumlalar keltirilgan. Yana bir o‘rinda Shayboniy Xonzodabegimni tushida ko‘rib, so‘ng uning jamoli vasfini tavsiflovchi go‘zal g‘azal bitgan sahna keltiriladi. Bunday tavsiflash orqali yozuvchi Shayboniyxonning shoirlik darajasini va mahoratini yanada orttirishga harakat qilgan. Shuningdek, obrazning asardagi badiiy-g‘oyaviy o‘rnini shu tomondan ham belgilashga uringan, degan xulosa qilish mumkin.

Yozuvchi Jovli Xushboq Shayboniyning g‘azallarini o‘zidan o‘zi yozib keltirmaydi, aksincha, tarixiy manbalarga tayangan holda yozadi. Bizga ma’lumki, Shayboniyxonning o‘zbek tilida yozilgan devoni mavjud. Bu esa yozuvchining tarixiy manbalardan foydalanib g‘azallarni keltirganligini bildiradi. Muallif Shayboniyxonning g‘azal yozishini badiiy dalillash orqali obrazning ilm va ilod jihatdan yetuk siymo ekanligini, o‘sha davr hukmdorlariga oid bo‘lgan bunday komillik darajasining baland nuqtalarida turuvchi tarixiy shaxs siymosini gavdalantiradi. G‘azallarning keltirilishidan maqsad faqat “ijodkorning faxr tuyg‘usi yoki tarixiy haqiqatni tiklash va realistik asar ehtiyoji emas, asl badiiy niyat obraz”[1: 63] “…ruhiyatida kechadigan turlicha his-tuyg‘ulari manzarasini”[6: 80] ko‘rsatishdan iboratdir.

Hirotni egallash oldidan qilingan mashvarat voqeasi “Navoiy turgan shaharga botinolmayman” deb nomlanadi. Shundan ham bilsa bo‘ladiki, yozuvchi Shayboniy adabiyotni, she’riyatni ancha ustun bilgan, Navoiyni daho sifatida ko‘rgan, degan fikrni isbotlashga harakat qiladi: “Hozir Xurosonni, katta shaharlaridan Hirot bilan Qobulni egallab olishga istihola qilurmen… Ikkinchidan, axir u moborak makonda o‘zbek she’riyatining asoschisi Alisher Navoiy hazratlari istiqomat qiladur. Bir umr ul ulug‘ zotning iste’dodi oldida peshonam yerga tekkuncha ta’zimdaman. Adabiyotimiz buyuk qirolining yuziga oyoq qo‘ya olmayman”. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, romanda muallif bosh qahramonning xarakter-xususiyatlarini subyektiv yondashgan holda o‘z talqinida berishga harakat qilgan. Yuqorida aytib o‘tilgan barcha badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari yozuvchining o‘z idealidagi qahramonning badiiy tasviri hisoblanadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, romanda Shayboniyxon obrazi tarixiylik va badiiylik uyg‘unligida yaratilgan. Muallif tarixiy manbalarga tayangan holda uning siyosiy faoliyati, Temuriylar davridagi siyosiy parokandalik sharoitida Movarounnahrni birlashtirishga qaratilgan harakatlarini tasvirlaydi. Muallif tarixiy shaxs obrazini yaratishda psixologik tasvir vositalaridan ham keng foydalanadi.

Shayboniyxonning ichki kechinmalari, qarorlar oldidagi ruhiy holati, davlat va xalq taqdiri uchun mas’uliyat hissi monologlar orqali ochib berilgan. Bu esa obrazni oddiy tarixiy shaxs darajasidan chiqarib, murakkab va jonli badiiy xarakter darajasiga olib chiqadi. Natijada o‘quvchi Shayboniyxonni nafaqat sarkarda yoki hukmdor sifatida, balki o‘z davrining siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy muammolarini teran anglagan shaxs sifatida idrok etadi. Umuman olganda, asarda Shayboniyxon obrazi tarixiy haqiqatlarga tayanilgan holda, yozuvchining subyektiv badiiy qarashlari bilan boyitilib, murakkab va ko‘p qirrali obraz sifatida yaratilgan. Mazkur obraz orqali muallif o‘z davrining siyosiy ziddiyatlari, davlatchilik g‘oyasi, milliy birlik masalasi hamda tarixiy shaxslarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini badiiy talqin etishga erishgan. Shu bois, romandagi Shayboniyxon obrazi nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki milliy davlatchilik, siyosiy barqarorlik va ma’naviy qadriyatlarni ifodalovchi badiiy timsol sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asar orqali tarixiy shaxsning badiiy talqini, tarixiylik va badiiylik nisbatining uyg‘unligi hamda yozuvchining individual estetik qarashlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жовли Хушбоқ. Муҳаммад Шайбонийхон. Роман. –Т.: Очун, 2024.
2. Kenjayev F. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy talqinlari. Filol. fan. dok. ... diss. – Toshkent: 2024.
3. Ҳерман Вамбери. Бухоро ёвуд Мовароуннаҳр тарихи. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyev M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. Quronov S. Romanda inson. Monografiya. – T.: 2024.
6. Rahimjonov N, Ko‘baev Q. Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi. – Toshkent: Adolat, 2005.
7. Shermamatova Sh. Muhammad Shayboniyxon hayoti va ijodining o‘rganilishi // International journal of resently scientific research’s theory.
8. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon-gazallar-xurshid-davron-muhammad-shaybo niyxon-haqida.html